



Ingliz tili talabalarining yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantiruvchi metodlar

Abdiolimova Qizlarxon Subhonali qizi –
Farg'ona davlat universiteti
“Chet tillari fakulteti o'qituvchisi,
E-mail: abdiolimovaqizlarxon@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-1643-418X>
Tel: +998 90 151-56-51

***Annotatsiya.** Yozma nutq ko'nikmasi chet tilini o'rganish jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Ingliz tilini o'rganayotgan talabalar ko'pincha fikrlarini aniq va mantiqiy tarzda ifodalashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli yozma nutqni rivojlantirishda samarali pedagogik metodlardan foydalanish zarur. Mazkur maqolada talabalar yozma nutqini shakllantirishda qo'llaniladigan metodlar, jumladan kommunikativ metod, kontekstual o'qitish, jarayonga asoslangan yondashuv va integratsiyalashgan Process-Genre metodlari tahlil qilinadi. Maqolada metodlarning nazariy asoslari, amaliy qo'llanilishi va talabalarga ta'siri muhokama qilinadi. Shuningdek, yozma nutqni rivojlantirishda qo'llaniladigan amaliy topshiriqlar va pedagogik tavsiyalar ham keltiriladi.*

***Kalit so'zlar:** yozma nutq, ingliz tili o'qitish, kommunikativ metod, kontekstual o'qitish, yozish ko'nikmasi, akademik yozuv.*

Методы развития навыков письменной речи у студентов, изучающих английский язык

***Аннотация.** Навыки письменной речи являются одной из важнейших составляющих процесса изучения иностранного языка. Студенты, изучающие английский язык, нередко сталкиваются с трудностями при чётком и логичном выражении своих мыслей в письменной форме. Поэтому в развитии письменной речи необходимо использовать эффективные педагогические методы. В данной статье анализируются методы, применяемые при формировании письменной речи*

студентов, в частности коммуникативный метод, контекстное обучение, процессно-ориентированный подход и интегрированный метод Process-Genre. В статье рассматриваются теоретические основы этих методов, их практическое применение и влияние на студентов. Также приводятся практические задания и педагогические рекомендации, направленные на развитие письменной речи.

Ключевые слова: *письменная речь, обучение английскому языку, коммуникативный метод, контекстное обучение, навыки письма, академическое письмо.*

Methods for developing the writing skills of english language students

Annotation. *Writing skills are one of the most important components of the foreign language learning process. Students who study English often face difficulties in expressing their ideas clearly and logically in written form. Therefore, it is necessary to use effective pedagogical methods to develop writing skills. This article analyzes the methods used in developing students' writing skills, including the communicative method, contextual teaching, the process-based approach, and the integrated Process-Genre method. The paper discusses the theoretical foundations of these methods, their practical application, and their impact on students. In addition, practical tasks and pedagogical recommendations for improving writing skills are presented.*

Keywords: *writing skills, english language teaching, communicative method, contextual teaching, writing competence, academic writing.*

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida ingliz tilini bilish nafaqat og'zaki muloqot uchun, balki yozma kommunikatsiya uchun ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, ilmiy faoliyat, xalqaro hamkorlik, akademik tadqiqotlar hamda professional muhitda yozma nutq ko'nikmalari katta rol o'ynaydi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda yozma nutqni rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Yozma nutq til o'rganish jarayonining murakkab, ammo zaruriy komponenti hisoblanadi. U talabalarni fikrlarini mantiqiy, aniq va tizimli tarzda ifodalashga o'rgatadi. Shuningdek, yozish jarayoni talabani grammatik bilimlarini mustahkamlaydi, lug'at boyligini kengaytiradi hamda analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ko'plab EFL (English as a Foreign Language) talabalar yozish jarayonida turli qiyinchiliklarga duch keladi.

Ular orasida quyidagilarni alohida ta'kidlash mumkin:

- a) lug'at boyligining yetarli emasligi;
- b) grammatik xatolar;
- c) fikrlarni mantiqiy ketma-ketlikda ifodalashdagi qiyinchiliklar;
- d) matn tuzilishini to'g'ri tashkil eta olmaslik;
- e) yozma topshiriqlarni bajarishda motivatsiyaning pastligi.

Masalan, ko'plab talabalar oddiy paragraf yozishda ham fikrlarini tartibga solishda qiynaladilar. Quyidagi oddiy misol bunga dalil bo'lishi mumkin:

Talabaning boshlang'ich yozuvi: *I like my city. It is big. Many people live there. There are shops and parks. It is good city.*

Bu matn grammatik jihatdan qisman to'g'ri bo'lsa-da, unda fikrlarning rivoji va bog'lanishi yetarli emas. Pedagogik metodlar yordamida bu matn quyidagicha yaxshilanishi mumkin:

Tahrirlangan variant: *I like my city because it is lively and comfortable to live in. Many people live here and there are many parks, shops and cultural places. The city is developing every year, which makes it an interesting place for both residents and visitors.*

Ko'rinib turibdiki, yozma nutqni rivojlantirish jarayoni nafaqat grammatik bilimlarni, balki talabaning fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Shu sababli zamonaviy ta'lim metodikasida talabalarni yozishga o'rgatishda turli innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu maqolada yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qiluvchi bir nechta samarali metodlar tahlil qilinadi.

Yozma nutqni rivojlantirish metodlari:

Kommunikativ metod. Bu metod chet tilini o'qitishda keng qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlardan biridir. Ushbu metodning asosiy maqsadi tilni real muloqot vositasi sifatida o'rgatishdan iborat. Yozma nutqni rivojlantirish jarayonida kommunikativ metod talabalarning yozish faoliyatini real hayotiy vaziyatlar bilan bog'laydi.

Bu metod doirasida talabalar quyidagi yozma topshiriqlarni bajarishlari mumkin:

- a) elektron xat (email) yozish;
- b) blog yoki ijtimoiy tarmoq posti yozish;
- c) fikr bildiruvchi maqola yozish;
- d) muammoga yechim taklif qiluvchi matn yozish.

Masalan, talabalar quyidagi vazifani bajarishlari mumkin:

Topshiriq: *"Your university plans to build a new library. Write an email to the administration and suggest what facilities the library should include."*

Talabalar quyidagicha yozishlari mumkin:

Dear Administration,

I would like to suggest several ideas for the new university library. First, it should include quiet study rooms where students can concentrate. Second, there should be computers with internet access for research purposes. Finally, comfortable reading areas would make the library more attractive for students.

I believe these facilities would greatly improve the learning environment.

Sincerely,

A student

NATIJAR VA MUHOKAMA

Bu kabi vazifalar talabalarning:

- a) auditoriyani hisobga olish;
- b) fikrlarni aniq ifodalash;
- c) yozma muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, kommunikativ metodda **peer review** (o'zaro tahlil) usuli ham samarali hisoblanadi. Bu jarayonda talabalar bir-birining matnlarini o'qib, taklif va izohlar beradilar.

Kontekstual o'qitish metodi. Kontekstual o'qitish metodi talabalarning bilimlarini real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashga qaratilgan. Ushbu metod orqali o'rganilayotgan material talabaning shaxsiy tajribasi bilan integratsiya qilinadi.

Masalan, quyidagi yozma topshiriqlar kontekstual o'qitish metodiga misol bo'la oladi:

- a) o'z shahrini tavsiflash;
- b) sayyohlik qo'llanmasi yozish;
- c) shaxsiy tajribaga asoslangan hikoya yozish;

d) ijtimoiy muammolar haqida fikr bildirish.

Misol topshiriq: *“Describe your hometown and explain why tourists should visit it.”*

Talabaning javobi quyidagicha bo'lishi mumkin: *My hometown is Fergana, one of the beautiful cities in Uzbekistan. The city is known for its green parks and peaceful atmosphere. Tourists can visit museums, historical places and traditional markets. In addition, local people are very friendly and welcoming. For these reasons, Fergana is an interesting destination for visitors.*

Bunday topshiriqlar talabalarni: o'z tajribalaridan foydalanishga; mustaqil fikrlashga; mazmunli matn yaratishga rag'batlantiradi.

Jarayonga asoslangan yondashuv (Process Approach). Jarayonga asoslangan yondashuv yozish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etishga asoslanadi. Bu metod yozishni yakuniy natija emas, balki ijodiy jarayon sifatida ko'rib chiqadi.

U quyidagi bosqichlardan iborat: G'oya yig'ish (Brainstorming). Talabalar mavzu bo'yicha turli fikrlarni yozadilar.

Misol: Mavzu: *Advantages of Online Learning*

Talabalar quyidagi g'oyalarni yozishlari mumkin: a) flexible schedule; b) study from home; c) access to many resources; d) save time and money.

Reja tuzish. G'oyalar tartibga solinadi.

Example outline, Introduction, Advantages of online learning, Examples, Conclusion

- Qoralama yozish. Talabalar birinchi versiyani yozadilar.
- Tahrirlash. Grammatika, leksika va tuzilish yaxshilanadi.
- Yakuniy variant. Tayyor matn taqdim etiladi.

Bu metod talabalarga yozish jarayonini tizimli ravishda o'rganishga yordam beradi.

Integratsiyalashgan Process-Genre yondashuvi

Process-Genre yondashuvi jarayon va janr metodlarini birlashtiradi. Bu metod talabalarni turli yozma janrlar bilan tanishtirish orqali ularning yozish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Masalan, talabalar quyidagi janrlarni o'rganishlari mumkin: a) essay; b) report; c) review; d) formal letter.

Avval model matn tahlil qilinadi. Example: Opinion Essay Structure Introduction, Argument, Argument, Conclusion.

So'ng talabalar shu model asosida o'z matnlarini yaratadilar.

Misol: Mavzu: *Should students use mobile phones in class?*

Talaba quyidagicha yozishi mumkin: *Mobile phones are widely used by students today. Some teachers believe they distract students from learning, while others think they can be useful educational tools. In my opinion, mobile phones can be helpful if they are used properly. For example, students can use them to search for information or participate in online quizzes.*

Bu metod talabalarining:

- akademik yozuv ko'nikmalarini;
- matn strukturasi tushunishini;
- mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

XULOSA

Ingliz tili talabalarining yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Yozma nutq talabalarining fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Maqolada tahlil qilingan metodlar yozma nutqni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Xususan:

- a) kommunikativ metod yozishni real muloqot vositasi sifatida o'rgatadi;
- b) kontekstual o'qitish talabalarining tajribalariga asoslanadi;

c) jarayonga asoslangan yondashuv yozishni bosqichma-bosqich o'rgatadi;

Process-Genre yondashuvi esa matn tuzilishi va yozish jarayonini birlashtiradi. Ushbu metodlardan kompleks tarzda foydalanish talabalarning yozma nutqini sezilarli darajada rivojlantiradi. Natijada ular fikrlarini aniq, mantiqiy va grammatik jihatdan to'g'ri ifodalay oladigan darajaga erishadilar. Shuningdek, yozma nutqni rivojlantirish jarayonida interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish ham samarali natijalar beradi. Bu esa talabalarning akademik yozuv ko'nikmalarini shakllantirish va ularni ilmiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hyland K. *Second Language Writing*. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2019.
2. Richards J. C., Rodgers T. S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020.
3. Harmer J. *How to Teach English*. – London: Longman, 2021.
4. Hyland K., Hyland F. *Feedback in Second Language Writing: Contexts and Issues*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021.
5. Ferris D., Hedgcock J. *Teaching L2 Composition: Purpose, Process, and Practice*. – New York: Routledge, 2022.
6. Richards J. C. *Teaching English through Interaction*. – New York: Routledge, 2023.
7. Brown H. D., Lee H. *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. – New York: Pearson Education, 2021.
8. Jalolov J. *Chet tilini o'qitish metodikasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
9. Abdullayeva Q. *Chet tillarni o'qitish metodikasi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.